

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi va Amadeus axborot texnologiyalari sohasida strategik hamkorlik boshlanganligini e'lon qiladi

2021 17 Dekabr

Amadeus bilan tuzilgan shartnoma aviakompaniyaning havo kemasi bortidagi o'rindiqlar, tariflarni boshqarish, distributsiya va yo'lovchilar uchun xizmat ko'rsatishning asosiy tizimlarini modernizatsiya qilish orqali operatsion samaradorlikning yangi darajasiga erishishga imkon beradi.

Endi sayohatchilar safarlarini o'zlariga maksimal darajada moslashtirishlari va o'z ehtiyojlariga mos keladigan marshrutni yaratish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Uzbekistan Airways, O'zbekiston Respublikasining milliy aviatashuvchisi hamda turizm, transport, mehmondo'stlik sohalari uchun axborot texnologiyalarini yetkazib beruvchisi yetakchi Amadeus kompaniyasi bilan uzoq muddatli hamkorlik boshlanganligini e'lon qiladi. Aviakompaniya operatsion samaradorlikni oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish uchun ilg'or Amadeus IT-yechimlaridan foydalanadi. Bundan tashqari, hamkorlik aviakompaniyaning o'z strategik maqsadiga erishishga – Yevropa va Osiyo o'rtasida qulay havo yo'llarini ta'minlashga yordam beradi.

Shartnomaga ko'ra, aviakompaniya Amadeus Altéa Passenger Service System (PSS) yo'lovchi xizmati tizimining to'liq yechimlari, shuningdek, daromadni boshqaruvchi Revenue Management, Revenue Accounting va Travel Intelligence nomli biznes-tahlil tizimlarini joriy qiladi.

Uzbekistan Airways'ning Amadeus innovatsion IT-yechimlaridan foydalanishi aviakompaniya yo'lovchilariga va uning agentlik tizimiga kiruvchi hamkorlari uchun ustunlik yaratadi. Misol uchun, aviakompaniya yo'lovchilarga o'zlarining shaxsiy ehtiyojlariga mos keladigan marshrutni yaratishga yordam beradigan qo'shimcha xizmatlarni (jumladan, oziq-ovqat, bagaj, havo kemasida joy tanlash va h. k.) taklif qilishni kengaytirishi mumkin. Bundan tashqari, yangi texnologiya sayohatchilarga paketli tariflar asosida takliflarning keng tanlovidan foydalanib, qulay variantlarni topish imkonini beradi.

Ilhom Mahkamov, Uzbekistan Airways Boshqaruv raisi: “Amadeus bilan shartnoma imzolanishi nafaqat aviakompaniya tarixida, balki O'zbekiston Respublikasining transport tizimida ham muhim bosqichdir. Sayohat uchun innovatsion texnologiyalar sohasidagi jahondagi yetakchi kompaniyalardan biri bilan strategik hamkorlikka kirishar ekanmiz, biz Uzbekistan Airways brendini xalqaro maydonda mustahkamlaymiz va turizm hamda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yangi istiqbollarni ochamiz”.

“Uzbekistan Airways” AJ dunyoning yetakchi aviakompaniyalari va bosh aviatsiya alyanslari ishtirokchilarini o'z ichiga olgan Amadeus mijozlar jamiyatining bir qismiga aylandi. Amadeus texnologiyalari aviakompaniyaning strategik maqsadiga erishishiga – Yevropa va Osiyo o'rtasidagi qulay joylashuvdan foydalanib, yangi havo transporti markazini yaratishga yordam beradi. Bundan tashqari, Amadeus IT-platformasidan foydalangan holda, Uzbekistan Airways mijozlarga xizmat ko'rsatishni jahon standartlari darajasida ta'minlay oladi, – deydi Svetlana Malyuk, Amadeus, Rossiya va MDH aviakompaniyalari bilan ishlash bo'yicha direktori. – Shunday qilib, sayohatchilar Amadeus Ticket Changer bilan sayohat rejalaridagi o'zgarishlarni qulay tarzda boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar va dasturda uzilishlar bo'lsa, bu yechim aviakompaniya bilan hamkorlikni optimallashtirishga imkon beradi. Biz aviatashuvchining IT-infratuzilmasi va

raqobatbardoshligini mustahkamlash orqali O'zbekiston va butun mintaqa havo transportini pandemiyada tiklashda ishtirok etishdan mamnunmiz".

Aviakompaniya o'z daromadlarini Amadeus yechimlaridan foydalanib, aviachiptalarni bron qilish va ro'yxatga olish, qo'shimcha xizmatlarni oflayn va onlayn-kanallarda, o'z savdo tarmog'ida yoki hamkorlar orqali oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Sayohat davomida yo'lovchi real vaqt rejimida shaxsiy tavsiyalar, shuningdek, jadvaldagi o'zgarishlar, jo'nash va boshqa xizmatlar haqida ma'lumot olishi mumkin bo'ladi.

Joriy yilning noyabr oyi boshida Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Amadeus Altea platformasiga o'tishni muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Keyingi qadam 2022-yilda Amadeus Revenue Management texnologiyasini joriy etish bo'ladi. Amadeus Altea yechimlari majmuasi bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida joylashgan va turli biznes modellaridan foydalanadigan 120 ta aviakompaniyalarda, jumladan Lufthansa, British Airways, Air France, Cathay Pacific, Southwest, Air Baltic, S7, Ural Airlines tomonidan foydalanilmoqda.

Telegram: t.me/uzbekistanairways